

## FAVQULODDA VAZIYATLARGA TAYYORLASHDA TA'LIM RESURLARINING O'RNI

**f.f.f.d. PhD Mirzayev A.R., Raxmatullayev B.M.**

*(Fuqaro muhofazasi instituti FVDTni boshqarish va rejalashtirish  
kafedrası dotsenti, 2-bosqich magistranti)*

## THE ROLE OF EDUCATIONAL RESOURCES IN PREPARING FOR EMERGENCY SITUATIONS

**PhD, Mirzayev A.R., Raxmatullayev B.M.**

*Associate Professor, Department of Management and Planning of the State System  
for Emergency Prevention and Response, Civil Protection Institute;  
Second-Year Master's Student*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda ta'lim resurslarining muhim o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Global miqyosda turli xil favqulodda vaziyatlar xususiyatining ortib borishi jarayonida aholining barcha qatlamini samarali tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda favqulodda vaziyatlarga tayyorlash bo'yicha ta'lim resurslarining nazariy asoslari, turlari va samaradorligi ko'rib chiqiladi. Xususan, O'zbekistondagi mavjud ta'lim tizimi tahlil qilinib, mavjud kamchiliklar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlanadi. Maqolada zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi, jumladan, onlayn platformalar, virtual reallik va simulyatsiyalarning samaradorligi muhokama qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba va eng yaxshi amaliyotlar o'rganilib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Favqulodda vaziyatlar, ta'lim resurslari, tayyorgarlik, O'zbekiston, samaradorlik, xalqaro tajriba, texnologiyalar, uzluksiz ta'lim.

**Abstract.** This article analyzes the important role and significance of educational resources in preparing for emergency situations. In the context of the increasing frequency and diversity of emergencies worldwide, the effective preparedness of all segments of the population is becoming critically important. The study examines the theoretical foundations, types, and effectiveness of educational resources used in emergency preparedness. In particular, the existing education system in Uzbekistan is analyzed, and current shortcomings and development opportunities are identified. The article also discusses the integration of modern technologies into the educational process, including the effectiveness of online platforms, virtual reality, and simulations. Furthermore, international experience and

best practices are reviewed, and recommendations are provided for adapting and improving them in accordance with the conditions of Uzbekistan.

**Keywords:** Emergencies, educational resources, preparedness, Uzbekistan, effectiveness, international experience, technologies, continuous education.

**Аннотация.** В данной статье анализируется важная роль и значение образовательных ресурсов в подготовке к чрезвычайным ситуациям. В условиях роста частоты и разнообразия чрезвычайных ситуаций в глобальном масштабе эффективная подготовка всех слоёв населения приобретает решающее значение. В исследовании рассматриваются теоретические основы, виды и эффективность образовательных ресурсов, применяемых в подготовке к чрезвычайным ситуациям. В частности, проводится анализ существующей системы образования в Узбекистане, выявляются имеющиеся недостатки и возможности дальнейшего развития. В статье также обсуждается интеграция современных технологий в образовательный процесс, включая эффективность онлайн-платформ, виртуальной реальности и симуляций. Кроме того, изучается международный опыт и лучшие практики, а также предлагаются рекомендации по их адаптации и совершенствованию с учётом условий Узбекистана.

**Ключевые слова:** Чрезвычайные ситуации, образовательные ресурсы, готовность, Узбекистан, эффективность, международный опыт, технологии, непрерывное образование.

**Kirish.** Favqulodda vaziyatlar global miqyosda insoniyat rivojlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka va ekologik muvozanatga jiddiy tahdid soluvchi omil bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda tabiiy ofatlar, texnogen avariylar, epidemiya va pandemiyalar kabi Favqulodda vaziyatlar soni va ularning oqibatlari tobora ortib borayotgani, ularga samarali tayyorgarlik ko'rishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Tayyorgarlik nafaqat tezkor harakat qilish va oqibatlarni bartaraf etishni, balki Favqulodda vaziyatlarni oldini olish, xavf-xatarlarni kamaytirish va aholining yashash sharoitini tiklash bo'yicha keng qamrovli strategiyalarni ham o'z ichiga oladi. Bunday tayyorgarlikni ta'minlashda ta'lim va o'qitish tizimlarining, xususan, sifatli va samarali ta'lim resurslarining o'rni beqiyosdir.

Ushbu maqolaning maqsadi favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda ta'lim resurslarining o'rnini chuqur tahlil qilish, ularning nazariy asoslari, turlari, O'zbekistondagi amaliyot holati, zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi hamda xalqaro tajribalarni o'rganishdan iborat. Bu tahlil asosida ta'lim resurslarini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha strategik yo'nalishlar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda ta'lim resurslarining o'rnini ko'plab xalqaro va ilmiy manbalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Xususan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim konsepsiyalarida xavf-xatarlarni kamaytirishda maktab va jamoatchilik ta'limi muhim omil sifatida baholanadi[6]. Ushbu yondashuv ta'lim resurslarini uzluksiz ta'lim tizimiga integratsiya qilish zarurligini asoslaydi.

Xalqaro amaliyotda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni oshirish masalasi UNDRR doirasida ham keng yoritilgan[7]. Tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan strategik hujjatlarda ta'lim materiallari, metodik qo'llanmalar va jamoatchilik treninglari aholining barqarorligini oshirishda muhim vosita sifatida ko'rsatiladi.

Masalan, favqulodda vaziyatlar ta'limi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan K.Shirinov o'z ishlarida simulyatsiya va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning real vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalari samarali shakllanishini ta'kidlaydi [1]. Shuningdek, D.Q. Inoyatova o'zining "Ta'limda innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi maqolasida ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish, ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi haqida aytib o'tgan [2].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim vositalari – video treninglar, mobil ilovalar va virtual simulyatsiyalar – favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda yuqori samaradorlik berishini ko'rsatadi. Interaktiv platformalar orqali o'rganilgan bilimlar amaliy mashqlar bilan uyg'unlashganda o'quvchilarning tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy harakat ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

Milliy tadqiqotlar ham ta'lim resurslarining ahamiyatini tasdiqlaydi. O'quv dasturlariga integratsiya qilingan favqulodda vaziyatlar modullari, metodik qo'llanmalar hamda amaliy mashg'ulotlar yoshlar va ish bilan band bo'lmagan aholining tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim materiallarini mahalliy sharoit va aholining ehtiyojlariga moslashtirish ilmiy manbalarda muhim tavsiya sifatida keltiriladi.

Ta'lim resurslarining samaradorligi ularning mazmuni, taqdim etish usuli va auditoriya ehtiyojlariga mos kelishi bilan belgilanadi. Favqulodda vaziyatlarga tayyorlash sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimida tub va inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda, natijada aholining amaliy ko'nikmalari, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati hamda xavf-xatarlarga tayyorgarlik darajasi sezilarli ravishda oshmoqda. Misol tariqasida onlayn platformalarga to'xtaladigan bo'lsak, ular geografik chegaralarni olib tashlab, istalgan joyda va istalgan vaqtda

ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali esa xavfsiz muhitda realistik simulyatsiyalarni o'tkazish mumkin, bu ishtirokchilarga amaliy ko'nikmalarni va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, yong'in xavfsizligi bo'yicha virtual reallik simulyatsiyalari odamlarga yong'in paytida evakuatsiya yo'llarini o'rganishga va o'zini qanday tutishni mashq qilishga imkon beradi. Sun'iy intellekt o'quv materiallarini shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish, o'quv jarayonini optimallashtirish va xatarlarni baholashda yordam berishi mumkin. Ushbu texnologiyalarning integratsiyasi ta'lim resurslarining jozibadorligi va ta'sirchanligini oshiradi[4,5].

Xalqaro tajriba favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda ta'limning uzluksizligi va amaliyligi muhimligini ko'rsatadi. Misol uchun, Iordaniyada favqulodda vaziyatlarda ishlovchi hamshiralar o'rtasida o'tkazilgan kvazi-eksperimental tadqiqot shuni ko'rsatdiki, 8 soatlik onlayn ta'lim dasturi ularning favqulodda vaziyatlar bo'yicha bilim, ko'nikma va shaxsiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirgan. Bu natijalar, ayniqsa, pandemiya sharoitida masofaviy ta'limning samaradorligini va uzluksiz kasbiy rivojlanishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, Eronda o'tkazilgan yana bir kvazi-eksperimental tadqiqotda, uch oy davomida haftasiga bir soatlik trening dasturi ko'ngillilarning bilimi, funksional ko'nikmalari va munosabatini sezilarli darajada yaxshilaganligi, bu ijobiy ta'sir vaqt o'tishi bilan barqaror bo'lganligi aniqlangan [3]. Bu tadqiqotlar ta'lim dasturlarining nafaqat bilimni oshirish, balki amaliy ko'nikmalar va favqulodda vaziyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda ham samarali ekanligini tasdiqlaydi. Xalqaro miqyosda bu kabi uzluksiz ta'lim va trening dasturlari favqulodda vaziyatlarga munosabat bildirish salohiyatini doimiy ravishda oshirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etiladi. O'zbekiston ushbu tajribalarni o'zining ta'lim tizimiga integratsiya qilishi, kasbiy guruhlar uchun muntazam, tizimli va texnologik yordamga asoslangan ta'lim dasturlarini joriy etishi maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda ta'lim resurslarining o'rnini o'rganish uchun sifatli tadqiqot usuli qo'llanilgan. Tadqiqot mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, hisobotlar, me'yoriy hujjatlar va xalqaro tajribalarning tizimli tahlili va sinteziga asoslanadi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik jarayonida ta'lim resurslari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, ta'lim orqali xavf-xatarlarni anglash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hamda jamoalarning barqarorligini oshirish imkoni yaratiladi, bu esa samarali profilaktika va oqibatlarni kamaytirishda muhim omil

hisoblanadi. Ta'lim resurslari mutaxassislar, ko'ngillilar va aholini favqulodda vaziyatlarga samarali javob berish uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Resurslarga o'quv qo'llanmalari, o'quv modullari, simulyatsiya mashqlari, onlayn kurslar va interaktiv platformalar kiradi. Tahlil an'anaviy va raqamli resurslar keng qamrovli o'quv tajribalarini taqdim etishda bir-birini to'ldirishini tasdiqlaydi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, uzluksiz ta'lim va amaliyotga yo'naltirilgan dasturlar favqulodda vaziyatlarga javob berish qobiliyatini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Ushbu amaliyotlarni O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiyalash ham mumkin, ham zarurdir. Resurslarni zilzilalar, suv toshqinlari va qishloq xo'jaligi xavflari kabi mahalliy xavflarga moslashtirish dolzarblikni ta'minlaydi va jamiyatning tayyorgarligini oshiradi.

O'zbekistonning hozirgi ta'lim va o'quv tizimini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi kabi muassasalar ilmiy va amaliy yordam ko'rsatsa-da, muntazam yangilanishlar, ilg'or texnologiyalarni integratsiyalash va xalqaro eng yaxshi amaliyotlarni tizimli ravishda qo'llash zarur. Mavjud dasturlar, uzluksiz o'qitish yondashuvlari bilan birlashtirilganda, favqulodda vaziyatlarda aholining tayyorgarligi va professional javob berish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Tadqiqot sifatli ta'lim resurslari, ayniqsa zamonaviy texnologiyalar va uzluksiz o'quv dasturlari bilan birlashtirilganda, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikka bo'lgan bilim, amaliy ko'nikmalar va munosabatlarni sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu resurslar aholi va mutaxassislarning turli favqulodda vaziyatlarga samarali javob berish qobiliyatini oshiradi. Natijada, topilmalar dasturlarni muntazam yangilash, VR/AR va AI texnologiyalarini integratsiyalash, kontentni mahalliyashtirish, jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalari va O'zbekistonning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik tizimini mustahkamlash uchun xalqaro hamkorlik bo'yicha tavsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

**Xulosa.** Favqulodda vaziyatlarga samarali tayyorgarlik ko'rish zamonaviy jamiyatning eng muhim ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu maqola favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda ta'lim resurslarining hal qiluvchi o'rnini tahlil qilib, ularning nazariy asoslari, turlari, O'zbekistondagi mavjud holati, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi va xalqaro tajribalarni ko'rib chiqdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sifatli va dolzarb ta'lim resurslari aholining, ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda ishtirok etuvchi mutaxassislar va ko'ngillilarning bilim, ko'nikma va

munosabatini sezilarli darajada yaxshilaydi, shu bilan birga, ularning FVga munosabat bildirish salohiyatini oshiradi.

Uzluksiz ta'lim va trening dasturlarini joriy etish: FVga munosabat bildirishda ishtirok etuvchi barcha xodimlar, shu jumladan, tibbiyot xodimlari, qutqaruvchilar, huquq-tartibot organlari vakillari va ko'ngillilar uchun muntazam, tizimli va takrorlanuvchi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish: Onlayn platformalar, mobil ilovalar, VR/AR simulyatsiyalari va sun'iy intellektga asoslangan o'quv modullarini yaratish va ulardan keng foydalanish. Bu texnologiyalar amaliy ko'nikmalarni xavfsiz muhitda egallash va o'rganish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Aholining barcha qatlamlari uchun ommaviy ta'limni kuchaytirish: Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab, oliy ta'lim muassasalari, ish joylari va jamoatchilik tashkilotlarida FV bo'yicha umumiy bilim va xabardorlikni oshirish bo'yicha kampaniyalarni muntazam o'tkazish. Oddiy va tushunarli tilda vizual va interaktiv resurslardan foydalanish.

Xalqaro hamkorlik va tajriba almashishni kengaytirish: FV sohasida yetakchi xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan tajriba almashish dasturlarini yo'lga qo'yish, qo'shma tadqiqotlar o'tkazish va ilg'or metodologiyalarni o'zlashtirish.

O'quv dasturlarini muntazam yangilash va baholash: Ta'lim resurslari va dasturlarini FV sohasidagi so'nggi yutuqlar, xavf-xatarlar o'zgarishi va jamoatchilik ehtiyojlariga mos ravishda muntazam ravishda baholab borish va yangilash mexanizmlarini yaratish.

Ushbu tavsiyalar favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik tizimini mustahkamlash, aholi va mutaxassislarning FVga munosabat bildirish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. K.Shirinov. "Mutaxassislarni tayyorlashda trenajor simulyatorlarning ahamiyati". "Экономика и социум" 2025y. 1-son (128) – 260-266 betlar.
2. D.Q. Inoyatova. "Ta'limda innovatsion yondashuvlar". Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, №8. – 224-227 bet.
3. Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi Axborotnomasi. ISSN 3060-5121. Toshkent, O'zbekiston. Nashr etilgan masalalar: № 4 (6), №1 (5) 2025.
4. Aldebasi, A. A., & Alshagroud, R. I. (2024). Effect of an educational program on disaster knowledge, skills, and personal preparedness among emergency

nurses in Jordan: A quasi-experimental study. *Journal of Emergency Nursing*, 50(2), 154-162.

5. Zare-Bidaki, M., et al. (2023). The effect of training program on improving knowledge, functional skills, and attitude among disaster volunteers: a quasi-experimental study. *BMC Public Health*, 23(1), 1629.

6. UNESCO. (2015). *Disaster Risk Reduction in Education: Teaching Guide for Teachers*. UNESCO Publishing.

7. UNDRR. (2019). *Sendai Framework for Disaster Risk Reduction 2015-2030*. United Nations Office for Disaster Risk Reduction. – 2015-2030